

УДК 17.51

Odinaeva Nilufar Luqmonovna

Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti

Одинаева Нилуфар Лукмоновна

Преподаватель кафедры английского языка и литературы

Бухарский государственный университет

Odinaeva Nilufar Lukmonovna

Teacher of the department of English language and literature

Bukhara State University

KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TIL MATERIALINI O'RGATISH METODIKASI

THE METHOD OF TEACHING OF LANGUAGE MATERIALS AT VOCATIONAL SCHOOLS

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ЯЗЫКОВЫХ МАТЕРИАЛОВ В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОЛЛЕДЖАХ

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar kollejlarda til materiallarini qo'llanilishini va o'rgatish metodikasi tahlil qilingan

Kalit so'zlar: leksika, grammatika, approksimatsiya

Аннотация: В этой статье рассматривается методика использования и обучения языковых материалов в профессиональных колледжах

Ключевые слова: лексика, грамматика, аппроксимация

Summary: The method of use and teaching of language materials at vocational schools has been described in this article

Key words: lexis, grammar, approximation

Zamonaviy o'qitish amaliyotida til materiali tushunchasi ikki manoda talqin etiladi: (1) leksik, grammatik, fonetik va boshqa lisoniy birliklar majmui; (2) o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda, til sistemasidan tanlab olingan til minimumi deb atalgan, o'quvchilar uchun chet til materiali hisoblanadigan birliklar yig'indisi.

Ma'lumki, o'qitish amaliyotida ingliz tili o'rganishda har qaysi bosqich va tashkiliy qism(o'quv yurt)lari uchun alohida-alohida leksik, grammatik, talaffuz, imlo, so'z yasash minimumlari tanlanadi.

Tanlash mezonlari umumiy bo'lsa-da, shakllantirilgan til minimumlari miqdoriy va sifat jihatidan bir-biridan farq qiladi. Jumladan, kollejlarda til materialini metodik tayyorlash (tanlash, taqsimlash, tasniflash va taqdimot) va o'rganish uchun taqdim etilishi ham o'ziga xos jarayondir.

Zamonaviy chet til o'qitish metodikasida leksikani o'rgatish nutq faoliyati turlarini egallash vositasi sifatida talqin qilinadi. Ingliz tili o'qitish metodikasida leksikani o'rgatish ikki bosqichdan iborat jarayon deb qaraladi. Birinchisi, leksikani metodik tayyorlash (tanlash, taqsimot, tasnif, taqdimot) bosqichi bo'lib, ushbu jarayon mazkur soha metodistlari tomonidan amalga oshiriladi. Ikkinchisi, leksik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichi bo'lib, ushbu jarayonda bevosita o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi.

Malumki, o'qitish metodikasida o'quv sharoitiga qarab aktiv (reproduktiv) va passiv (retseptiv) leksika tanlanadi. O'quvchi o'z fikrini bayon etayotganida va o'z g'alar nutqida tushuniladigan lug'at aktiv leksika deyiladi. Idrok etib tushunishga mo'ljallangan lug'at passiv leksik minimum hisoblanadi.

KHKda aktiv leksik minimum 1300ga yaqin birliklardan tashkil topadi. Yana kollej sharoitiga qarab passiv leksik minimum tanlanadi. Ikkala lug'at minimum o'quvchilarning real leksikasini tashkil etadi.

Leksikani tanlashda quyidagi metodik mezonlar asos qilib olinadi: hisob-kitob mezonlari, metodik mezonlar, tilshunoslik mezonlari.

Hisob-kitob mezonida so'zlarning nutqda ko'p qo'llanishi va keng tarqalganlik xususiyatlari, metodik mezonlarda nutq mavzulari hamda o'qitish maqsadlari hisobga olinadi. Tilshunoslik mezonida esa so'zlarning birikishi, so'z yasash imkoniyati, ko'p manolilik, uslub jihatdan chegaralanmaganlik, sinonimlarni chegaralash (yakkalash) va gap tuzishdagi ishtiroki kabilardan foydalaniladi.

Ikkinchi mezonda muayyan o'quv yurtida chet til o'qitishdan ko'zlangan maqsad va tanlangan nutq mavzulari asos bo'ladi. Malumki, KHKda ingliz tili o'qitishdan maqsad – ijtimoiy-maishiy, siyosiy, badiiy, o'quv-talimiy va

mutaxassislikka oid sohaviy matnlarni o'qish hamda dastur doirasida og'zaki nutq malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Mazkur o'quv yurti nutq mavzulari va o'qitish maqsadlari leksik birliklarni tanlashda asos vazifasini o'taydi.

Birikish mezoniga ko'ra tanlangan so'z boshqalari bilan imkoni boricha ko'proq birikmaga kirisha olishi, so'z yasash mezonida ulardan ko'proq yangi birliklar yasalishi ko'zda tutiladi.

Uslubda chegaralanmaganlik deganda, nutq faoliyatining barcha turlari va turli mavzularda ishlatiladigan so'zlarni tanlash mezonini tushuniladi. Aktiv va passiv leksik birliklar birgalikda o'quvchilarning real lug'at boyligini tashkil etadi. Real lug'at maxsus mashqlar bajarish orqali o'zlashtiriladi.

Ingliz tilini o'rgatishda o'quvchi hali o'rganmagan, lekin ushbu lug'atga duch kelganda o'quvchi uni ona tili, ikkinchi til yoki chet tilning shakliy (formal), manoviy (semantik) tomonlarining o'xshashligi tufayli bilib olishning ichki imkoni bor leksik birliklar ham mavjud. Ular potentsial lug'at deb ataladi.

Potentsial lug'atni og'zaki (audiomatnda) yoki yozma (grafikmatnda) shaklda taqdim etilishi chog'ida bilib olish mumkin. KHKda potentsial lug'at boyligini o'rgatish masalasiga alohida to'xtalish zarur. CHunki, mazkur o'quv yurtida ixtisoslikka oid kasbiy atamalar bilan ishlashga to'g'ri keladi. Kasbiy terminologiyadagi juda ko'p leksik birliklarning ona tili, ikkinchi til va ingliz tilida shakliy-manoviy va talaffuz tomonlarida o'xshashlik mavjud bo'lishini kuzatish mumkin.

Xorijda va Vatanimizda leksik material tasnifi masalasi metodistlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. CHet til o'qitish ruhshunosi H.Hyuz ona tili bilan taqqoslash orqali chet til leksikasini oson va qiyin guruhlarga ajratgan. Taniqli metodist H. Palmer leksikani shakl, mano va qo'llanish yuzasidan tasnif etgan bo'lsa, CH. Friz so'zning gapdagi vazifasi va birikish xususiyatidan kelib chiqqan holda tasnifni amalga oshirgan, R. Lado leksikani tillararo interferentsiyaga bog'lab tasnif etishni taklif etgan.

XX asrning oltmishinchi va etmishinchi yillarida bu boradagi ilmiy malumotlar umumlashtirildi, yangi tasnif mezonlari o'rtaga tashlandi. Sobiq Ittifoqda

I.V.Raxmanov, V.A.Buxbinder, S.V.Kalinina, L.Z.YAkushina, M.S.Latushkina, N.B.Nikolaev, A.A.Zalevskaya, M.A.Pedanova, YU.V.Gnatkevichlar turli nuqtai nazardan turib, chet til leksikasini toifalarga ajratishgan bo'lsa, o'zbek milliy auditoriyasi uchun J.Jalolov, H.Saynazarov, M.CHorievlar ingliz tili leksikasini tasnifi ustida tadqiqotlar olib borishgan. YUqoridagi tadqiqotlarda chet til leksikasining xususiyatlari, tilning ichki va tillaro interferentsiyasiga bog'lab tasniflash, aktiv va passiv lug'atga xos qiyinchiliklar o'rganilgan.

Grammatikaning til o'rganishda tutgan o'rni, nutqiy muloqotda o'ynaydigan etakchi roli haqida maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Til materialining tarkibiy qismi hisoblangan grammatika bo'yicha ilmiy manbalarda turli fikr va mulohazalar bayon qilingan. Grammatikani (1) tilning grammatik qurilishi; (2) tilning grammatik qurilishi haqidagi fan; (3) amaliy grammatikani, yani konkret tilga oid grammatik qoidalar, grammatik hodisalar tavsifi, grammatik ko'nikma va malakalar deb qarovchilar mavjud.

KHKda ingliz tili grammatikasini o'rgatishning xususiyatlaridan biri uni ona tili grammatikasidan o'rganilgan bilimlarga asoslanishidir. Ona tilida grammatika til amaliy o'zlashtirilgandan keyin o'rgatilib, ko'pgina hollarda nazariy va amaliy grammatikaning qarishmasidan iborat bo'ladi.

Xorijiy til talimida grammatik malumotlar tom manoda amaliy xarakterga ega bo'ladi. KHKda grammatikani o'rgatish asosan quyidagilar bilan cheklanadi: (1) grammatik shakl, ularning manosi va qo'llanishini o'zlashtirish; (2) ushbu shakllarga oid qoidalarni bilish, muloqot vaziyati va kontekstda ulardan foydalana olish ko'nikmalarini egallash; (3) og'zaki va yozma fikr bayon etganda grammatik ko'nikmalarni qo'llay bilish.

KHKda o'quvchilar chet til grammatikasini o'rgatish mazmunini egallaydilar. Grammatikani o'rgatish ham leksika kabi ikki bosqichda, uni

metodik tayyorlash (tanlash, taqsimot, tasnif va taqdimot) va grammatik ko'nikmalarni shakllantirish tarzida olib boriladi.

Grammatik hodisaning yasalishi, manosi va qo'llanishi alohida-alohida grammatik birlik hisoblanadi. Mikroqo'llanish, mikromanova mikroshakl tushunchalari ham fanda tadqiq qilingan.

O'quvchilar o'rganishlari zarur bo'lgan grammatik minimum o'rta maxsus, kasb-hunar talimining umumtalim fanlari davlat talim standartlari va o'quv dasturlarida keltirilgan.

KHKda ingliz tilini o'qitish jarayonida talaffuz materiali ustida ishlash og'zaki nutq (gapirish va tinglab tushunish), o'qish malakalarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi.

Talaffuzni o'rgatishda eshitish (akustik), aytish (motor) va manobildirish(semantika)ni o'zlashtirish, yani talaffuz ko'nikmasini egallash nutqiy muloqotning muhim shartlaridandir. Talaffuz ko'nikmasini egallash deganda, nutq birligining tegishli tovushlar orqali ro'yobga chiqishini taminlovchi yaxlit lisoniy amal tushuniladi [38:172-188].

Maktab sharoitida o'quvchilar ingliz tilida approksimatsiyalashgan talaffuzni o'rganishadi [38].KHKda ham ushbu printsipga rioya qilinadi.Approksimatsiya g'oyasiga, binoan, birinchidan, fonetik materialni hajman chegaralashga, ikkinchidan, ayrim tovushlar talaffuzining sifati til sohibinikidan pastroq bo'lishiga yo'l qo'yiladi. Talaffuzdagi taqribiylik, avvalo, talim sharoiti (ingliz tili o'rganishning suniy muhiti) bilan belgilansa, soniyan, talaffuz leksika va grammatikaga nisbatan murakkabroqdir.

KHKda talaffuzni o'rgatish muayyan tizim asosida olib borilishini taqozo etadi. Talaffuzni o'rgatish kommunikativ yo'nalishda olib boriladi.

KHK o'quvchilariga talaffuz ko'nikmalarini singdirish vazifalarini sanab o'tamiz: (a) tinglash va eshitish ko'nikmalarini, yani fonematik eshituv qobilyatini o'stirish; (b) talaffuz ko'nikmasini, ingliz tili artikulyatsion bazasini

va intonatsiya usullarini avtomatizm darajasida egallash; (v) tashqi nutqning psixofizilogik asosi bo'lgan ichki nutqni o'stirish va h.k.

II. Ingliz tili talaffuz (fonetik) minimumi leksik va grammatik materialga bog'liq holda tanlanadi. Til materialini, odatda, aktiv va passiv minimumlardan iboratligi takidlandi. Lekin talaffuz minimumi o'zgacha xususiyatga ega ekanligi metodikada malum. Aktiv va passiv talaffuz minimumlari bir paytning o'zida o'rganiladi. Ular murakkab nutqiy malakaning tarkibiga kirib, og'zaki nutqning gapirish va tinglab tushunish jihatlarida namoyon bo'ladi. Talaffuzning aktiv minimumida taqribiylikka yo'l qo'yiladi, passivda bunga yo'l qo'yilmaydi. Aktiv minimum doirasida chegaralangan fonetik material yuzasidan ish ko'riladi, passivda esa o'rganilayotgan ingliz tili fonemalarining variantlari ham uchraydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. –М., 1972. –310 с.
2. Барышникова Н.В. Методика обучения второму иностранному языку в школе: Учебное пособие. – М.: Просвещение, 2003. –159 с.
3. Бим И.Л. Методика обучения иностранному языку в школе: Учебное пособие. –М.: Просвещение, 2003. –159 с.
4. Габай Т.В. Педагогическая психология: Педагогика и психология: Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2003. – 480 с.